


Jamilaxon Sadullayeva,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot
instituti kichik ilmiy xodimi



MIGRATSIYA MUAMMOSINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING O‘ZBEK OLIMLARI TOMONIDAN O‘RGANILISHI

Annotatsiya. Migratsiya hozirgi davrning global jarayoni hisoblanadi. Jahon miqyosida migratsiyaning yo‘nalishlari o‘rganilgan va bu jarayon davom etmoqda. Yurtimizda migratsiya tez sur‘atlarda o‘tib borayotgan bo‘lsa-da, bu yo‘nalish bo‘yicha sanoqli tadqiqotlar o‘tkazilgan, kam o‘rganilgan. Mazkur maqolada O‘zbekistonda migratsiya bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlar va loyihalar o‘rganilib, natijalari yoritib berilgan.

Аннотация. Миграция – это глобальный процесс современности. Тенденции глобальной миграции изучены, и этот процесс продолжается. Хотя миграция в нашей стране растет быстрыми темпами, исследований в этом направлении мало. В данной статье изучены научные работы и проекты по вопросам миграции в Узбекистане и освещены полученные результаты.

Annotation. Migration is a global process of our time. Global migration trends have been studied and the process continues. Although migration is growing rapidly in our country, there is little research in this direction. This article examines scientific works and projects on migration issues in Uzbekistan and highlights the results obtained.

Tayanch so‘zlar: migratsiya, mehnat migratsiyasi, erkaklar va ayollar migratsiyasi sabablari, migratsiyaning ijobiy va salbiy taraflari, migratsiyaning bolalarga ta’siri.

Ключевые слова: миграция, трудовая миграция, причины мужской и женской миграции, положительные и отрицательные стороны миграции, влияние миграции на детей.

Keywords: migration, labor migration, reasons for male and female migration, positive and negative aspects of migration, impact of migration on children.

*O'zbekiston
aholisining
ham o'z milliy
qadriyatlar tizimi
mavjudligiga
qaramay,
migratsiyaga
ketgan erkak
yoki ayol o'zga
millat qadriyatlar
tizimini qisman
xulq-atvorida
shakllantiradi.
Migrant vataniga
qaytgach, albatta,
o'zlashtirgan
qadriyatlar tizimini
oilasida joriy
qila boshlaydi.
O'zlashtirilgan
qadriyatlar kelajak
avlod uchun salbiy
ta'sir qilayotgan
globallashuv
davrida o'zini
ko'rsatmoqda.*

Kirish. Aholi migratsiyasi murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, ushbu fenomen hozirgi kunda jamiyat hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Bizning davlatimiz global migratsion jarayonda emigrant davlat sifatida ishtirok etayotganini millionlab fuqorolarimizning ta'lim olish va mehnat qilish maqsadida chet davlatlarga migratsiya qilayotgani misolida keltirish mumkin. Mamalakatimizda migratsiya keng tarqalgan bo'lsa-da, bu yo'nalishdagi tadqiqotlar sanoqliligicha qolmoqda. Xususan, migratsiya jarayonini ijtimoiy-gumanitar soha doirasida R.Madaliyeva, T.Saidbayev, K.Kalanov, A.Rasulov, N.Qurbonov va F.Parmonovlar o'zlarining tadqiqotlarida qisman yoritgan. O'zbekistonda migrant oilalar ijtimoiy-psixologik tarafdin birinchi bo'lib H. Abdusamatov tomonidan, axloqiy-falsafiy jihatdan esa S.Alimov tomonidan o'rganilgan.

Maqsad va uni asoslash. F.Parmonov olib borgan tadqiqot ishida migratsiya jarayoni qadriyatlar transformatsiyasiga sabab bo'lishini ta'kidlagan. Ma'lumki, har bir xalqning diniy, axloqiy va milliy qadriyatlar tizimi mavjud. O'zbekiston aholisining ham o'z milliy qadriyatlar tizimi mavjudligiga qaramay, migratsiyaga ketgan erkak yoki ayol o'zga millat qadriyatlar tizimini qisman xulq-atvorida shakllantiradi. Migrant vataniga qaytgach, albatta, o'zlashtirgan qadriyatlar tizimini oilasida joriy qila boshlaydi. O'zlashtirilgan qadriyatlar kelajak avlod uchun salbiy ta'sir qilayotgan globallashuv davrida o'zini ko'rsatmoqda¹.

Hozirgi kunda yurtimizda nafaqat mehnat migratsiyasi, balki ta'lim, sog'liqni tiklash, kasb egallash maqsadida va hatto nikoh migratsiyasi ham rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil 1-mart holatida 2 million 356 nafar yurtdoshimiz mehnat muhojiri sifatida chet elda mehnat qilmoqda. Biroq bu sonlarni migrantlarni haqiqiy, deb ayta olmaymiz, chunki noqonuniy migrantlar ham juda ko'pchilikni tashkil qiladi².

Yurtimizda migrantlar uchun huquqiy sharoitlar yaratib berilmoqda. Bosh qomusimiz – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22-moddasiga muvofiq, “davlatimiz o'z hududida ham, boshqa mamlakat hududida ham o'z fuqarolarining huquq va manfaatlarini muhofaza qilishi hamda ularga homiylik qilishni kafolatlashi” belgilab qo'yilgan bunga yaqqol misol bo'la oladi³.

Migratsiyaning ko'p ijobiy taraflari bo'lgani kabi salbiy xususiyatlari ham mavjud. Shulardan biri sifatida aholi migratsiyasi bilan bog'liq axloqiy muammo sabab migratsiyaga ketish holatlarini keltirib o'tish mumkin.

Axloqiy muammo – “intelektual kapitalning oqib ketishi”, ya'ni ziyolilarning xorijga chiqib ketishidir. Migratsiya yoki migrantlar haqida gap ketganda, albatta, iqtisodiy muammolar birlamchi sabab sifatida oldingi o'ringa qo'yiladi. Ammo aynan ziyoli qatlamning mehnat va kasb migratsiyasiga

¹ Parmonov F. Sh. To'rayev, I. Daminov. Migratsiya: Musofir vatangadolar. Monografiya – Toshkent: “Sano-standart” nashriyot, 2015. – 112.

² <https://api.stat.uz/api/v1.0/data/doimiy-aholi-soni-jami?lang=uz&format=pdf>

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2019. – B. 18.

qo'shilishiga iqtisodiy omillardan tashqari, ma'naviy va axloqiy omilar ham sabab sifatida ko'rsatilishi mumkin. Zero, ziyoli insonlar (doktorlar, professorlar, olimlar, yozuvchilar va hokazo) jamiyatning rivojlanishiga to'siq bo'luvchi omillar (korruptsiya, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik va boshqalar) ga davlat kelajagini o'ylagan fuqaro pozitsiyasida turgan holda qarshi kurashadi. Ziyoli qatlam jamiyat rivojiga to'sqinlik qiluvchi muammolar hal etilmagach, migratsiyaga ketishga qaror qiladi. Oqibatda jamiyatdagi faollar va ziyolilar kuchsizlashadi, ijtimoiy axloqiy muammolar esa ko'payadi va o'z-o'zidan jamiyat kelajagi uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda yoshlarning rivojlangan davlatlarga ta'lim maqsadida migratsiya qilishi ko'paygani quvonarli holat, lekin ularning boshqa davlatda ta'lim olishdan ko'zlagan niyati o'qishni tugatgach, o'sha mamlakatda ishlab qolish hisoblanadi. Bu ham bizning davlat kelajagi uchun katta yo'qotishdir. Biroq boshqa tomondan esa yoshlar milliy qadriyatlar va axloqiy qarashlarimizni o'zgartirishi mumkinligi ham muammoli vaziyat hisoblanadi.

S.Alimov tomonidan "Migratsion kayfiyat va migratsiyaning jamiyat axloqiga ta'siri" mavzusida sotsiologik tadqiqot o'tkazilgan bo'lib, unda 634 respondent ishtirok etgan. Migratsiyaning jamiyat uchun qanday ijobiy jihatlari mavjud deb hisoblaysiz?" savoliga respondentlarning 59,8 foizi dunyoqarashning kengayishi, 42,6 foizi turli tillar, madaniyatlar, xalqlar bilan tanishuv, 40,1 foizi fikrlar erkinligi, xilma-xilligining ortishi, 39,4 foizi esa oddiy odamlar turmushida farovonlikning oshishi, degan javobni berishgan. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning 52,7 foizining fikricha, migratsiyaning mamlakatimizdagi axloqiy muhitga salbiy ta'siri "ommaviy madaniyat"ning kirib kelishida namoyon bo'ladi, deb hisoblaydi. Shuningdek, respondentlar tomonidan aholi migratsiyasi sababli vujudga keladigan ijtimoiy-axloqiy muammolar sifatida oilalarning buzilishi, xiyonat, ajrimlar sonining ortishi (49,1 foiz), aqlli insonlarning ketib qolishi tufayli jamiyatning intellektual taraqqiyotdan ortda qolishi (42,9 foiz), turli zararli g'oyalar ta'siriga tushib qolish (37,7 foiz), o'z tili va urf-odatlarini unutish (29,3 foiz), to'ylar va marosimlarga "gorko", "love story" kabi yangicha urf-odatlarning kirib kelishi (28,9 foiz), ichkilikbozlik, giyohvandlik hamda tamaki chekish kabi illatlarning ko'payishi (23,2 foiz) kabilar ko'rsatib o'tilganidan ham ko'rinib turibdiki, migratsiyaning ijobiy va salbiy tamonlari mavjud. Ammo migratsiya natijasida kirib kelayotgan salbiy axloqiy, madaniy, inson ongi va psixologiyasiga ta'sir o'tkazuvchi yot g'oyalar kelajak avlod uchun qadriyatlar transformatsiyasiga olib keladi. Buni hozirgi yoshlarning fikrlashi va dunyoqarashidagi o'zgarishlardan sezish mumkin⁴.

D.A.Majidova, D.F.Xusanova va A.A.Bazarovlar mehnat migrantlari oilalaridagi shaxslararo munosabatlarning pedagogik-psixologik omillarini loyiha doirasida o'rganishgan.

Tadqiqotda migratsiyaga ketgan shaxs va uyida qolgan oila a'zolari o'rtasidagi hissiy bog'liqligi, shuningdek, migratsiyaning oila a'zolariga, bolalarning xulq-atvori va psixologiyasiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot ikki guruhda: 1-guruhda otasi mehnat migrant bo'lgan, yolg'iz onasi bilan

Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning 52,7 foizining fikricha, migratsiyaning mamlakatimizdagi axloqiy muhitga salbiy ta'siri "ommaviy madaniyat"ning kirib kelishida namoyon bo'ladi, deb hisoblaydi.

⁴ Alimov S. Aholi migratsiyasi ijtimoiy-axloqiy muhit transformatsiyasi omili sifatida. – Toshkent, 2022. – B. 103-116.

Bolaga ota-onasidek mehr-e'tibor, g'amxo'rlikni o'z ota-onasidan boshqa shaxslar bera olmaydi. Ularning ketishi esa bolada o'zini yolg'iz va keraksizdek his qilishiga sabab bo'ladi. Bu salbiy hissiy-emotsional holat bolada travmalarni hosil qilib, xulq-atvoriga salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

qolgan bolalar; 2-guruhda ota-onasi mehnat migranti bo'lgan, bobo-buvisi yoki qarindoshlar qarmog'ida qolgan bolalar. Tadqiqot Toshkent shahri va Samarqand viloyatida o'tkazilgan.

Bolalarning otasiga nisbatan hissiy bog'liqligi sinaluvchilarning 46,1 foizida yuqori chiqqan. Ularning tadqiqotlarida ikkala guruhda ham otaga bo'lgan ijobiy munosabat 21 foizni tashkil qilgan. Ota-onasi migratsiyada bo'lgan bolalar ota-onasini er va xotin sifatida qabul qilish ikkala tadqiqot guruhlarida ham kichik foizlarni ko'rsatgan. Ota-onasini oila davrasida ko'rmaslik, ota-onaning ikkisi yoki birining doimiy migratsiyada, oiladan uzoqda bo'lishi bolalarda to'loqonli oila obrazi shakllanmasligiga sabab bo'ladi. Bolada ota-onasiga va kelajakdagi o'z oilasiga nisbatan munosabat shu tariqa shakllanadi. Bola ongida noto'liq oilani normal oila sifatida ko'ra boshlaydi. Shu tariqa bolada o'ziga xos oilaviy qadriyatlar shakllanadi. Aslida, oilada qizlar onadan, o'g'il bolalar otadan jamiyatda o'zini tutishni, shaxslararo munosabatlarni o'rganadi. Biroq bola aynan jamiyatda shaxslararo munosabatlarda o'z qarashlari shakllanayotgan bir vaqtda yolg'iz bo'lishi, ota-onalar va farzandlar o'rtasida ham jamiyat bilan bo'lgan shaxslararo munosabatlarda qatnashmasligi muammolarni yuzaga keltiradi. Bolaga ota-onasidek mehr-e'tibor, g'amxo'rlikni o'z ota-onasidan boshqa shaxslar bera olmaydi. Ularning ketishi esa bolada o'zini yolg'iz va keraksizdek his qilishiga sabab bo'ladi. Bu salbiy hissiy-emotsional holat bolada travmalarni hosil qilib, xulq-atvoriga salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi⁵.

Psixologiya fanlari doktori H. Abdusamatov ham migrant oilalardagi ijtimoiy-psixologik muammolarni tadqiq qilgan va migrant bo'lmagan oilalarni o'rganish maqsadida Samarqand, Andijon va Farg'ona viloyatlarida tadqiqotlar olib borgan. Tadqiqotda uzoq muddat birga yashamayotgan er-xotinlar va migrant bo'lmagan, birga yashayotgan er-xotinlarning "Simpatiya va sevgi shikalasi" bo'yicha bir-biriga nisbatan sevgi va simpatiyani qay darajada his qilishi o'rganilgan. Metodik tahlil natijalariga ko'ra, migrant bo'lmagan oilalarda o'zaro hurmat, er-xotinning bir-biriga nisbatan sevgisi hamda munosabatlardagi ijobiylik yo'qori chiqqan. Bunga sabab – ularning doimo bir joyda, ya'ni uzoq muddat ayro yashamaganligida, deb hisoblash mumkin. Migrant oilalarda esa uzoq vaqt birga yashamaganligi natijasida er-xotin o'rtasida o'zaro munosabatlarning so'nishi kuzatilgan.

Shuningdek, tadqiqot doirasida migrant oilalar 3 guruhga ajratgan holda, ya'ni migratsiyaga ketganiga 1–3 yil bo'lgan, migratsiya davomiyligi 4–7yil bo'lgan hamda 8 yildan ko'proq vaqt davomida migratsiya tufayli alohida yashayotgan oilalarning sevgi-muhabbat hislari darajasi tahlil qilingan. Migratsiya muddati qanchalik uzoq bo'lgani sari er-xotin o'rtasidagi his tuyg'ular kamayishi aniqlangan. Psixologik tadqiqotlardan ham ma'lumki, oilada shaxslararo munosabatlarni mustahkamlovchi omillardan biri ham muomala, suhbatlashish, o'zaro yordam va dalda berish kabi xislatlardir. Oiladagi shaxslarning alohida yashagan davridan boshlab munosabatlardagi

⁵ Majidova D.A., Xusanova D.F., Bazarov A.A. Mehnat migrantlari oilalarida shaxslararo munosabatlarning pedagogik-psixologik omillari. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2021. – 88 bet.

bog‘liqlik sekinlik bilan uzilib boradi. Bu, ayniqsa, alohida yashagan er va xotinlarda ko‘proq kuzatiladi. His-tuyg‘ularning so‘nishi shaxsda stress, tushkunlik va o‘zidan qoniqmaslik hissini paydo qiladi.

Tadqiqot doirasida, shuningdek, ijtimoiy frustrasiya holati qay darajada ekanligi ham o‘rganilgan.

Ijtimoiy frustrasiya – inson hayotining ushbu davrida jamiyatda egallashga muvaffaq bo‘lgan pozitsiyalariga nisbatan o‘z hissiy munosabatini bildirish.

Ijtimoiy frustrasiya darajasi Farg‘ona viloyatida yo‘qori chiqqan. Chunki Farg‘onada migrantlarning ko‘p ekanligi oiladagi tushunmovchiliklar, hayotdan norozilik va ajrimlar ko‘payishiga sabab bo‘lgan. Andijon viloyatida esa aksincha, migrant bo‘lmagan oilalarning ijtimoiy frustrasiya darajasi yuqori chiqqan. Bunga sabab – Andijon viloyatida migrant oilalar ko‘pligi, migrant oilalarnig farovonlik darajasi yuqoriligi va boshqa oilalarning o‘z turmush darajasidan qoniqmaslik hissining paydo bo‘lishiga olib kelgan. Migratsiya muddati qanchalik uzoq bo‘lsa, itimoiy frustrasiya darajasi ham shuncha ortib borar ekan. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, inson baxtli bo‘lishi va o‘zidan qoniqishi uchun moddiy farovonlikning o‘zi yetarli emas. Shaxs biror darajaga yetishgandan so‘ng uning ehtiyojlari ortib boradi va bu doimiy davom etadi. Migratsiyaga sabab bo‘luvchi omillardan yana biri ham aynan o‘zidan va hayotidan qoniqmaslik tufaylidir. Bugungi kunda ijtimoiy frustrasiya darajasining ortib borayotganini yoshlarda ham kuzatish mumkin. Ularda moddiy barqarorlikka qisqa vaqt ichida erishish istagi yuqorilab bormoqda⁶.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Bunga sabab – ota-onalarning shon-shuhrat, moddiyat ortidan quvish, bolalarga manaviy hamda axloqiy qadriyatlarining o‘rgatilmayotgani, farzandlarning dunyoqarashi ham shu asosda shakllantirib borilayotgani deb hisoblash mumkin. H.Abdusamatov tadqiqot ishida yangilik sifatida **“Migrant oilalar ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining aralash-tizimli modeli”** ni ishlab chiqdi. Bu model o‘zbek migrant oilalarining qadimdan shakllanib kelgan va jamiyat tomonidan qabul qilingan o‘ziga xos ijtimoiy madaniyatini idividual psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, **“oilaviy munosabatlar dinamikasining regressiv-situatsion xarakteri”**, **“obsessiv psixoastenik nizolar”** va **“qadriyatlar ierarxiyasi va differensiatsiyasi”** ni o‘zida jamlagan migrant oilalarning shaxsiy yo‘nalishini belgilashga qaratilgan modelini migrant oilalarga targ‘ib qilish⁷.

2006-yil O‘zbekistonning Toshkent, Andijon va Qoraqalpog‘iston hududlarida migratsiya sabablarini o‘rganish maqsadida loyiha doirasida tadqiqot olib borildi. Tadqiqot Shveysariyaning O‘zbekistondagi elchixonasining Gender dasturi doirasida tayyorlangan bo‘lib, uning maqsadi migratsiyaning quyida keltirilgan sabab va oqibatlarini o‘rganishga qaratilgan:

1. Migratsiyasi bilan bog‘liq hayot strategiyalarini aniqlash.

2. Migrantlar va ularning oila a‘zolarining milliy qadriyatlariga amal qilish darajasini aniqlash.

⁶ Abdusamatov H.U. Migrant oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlar. – Toshkent, 2022. – B. 70-75.

⁷ Abdusamatov H.U. Migrant oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlar. – Toshkent, 2022. – B. 210-211.

haxs biror darajaga yetishgandan so‘ng uning ehtiyojlari ortib boradi va bu doimiy davom etadi. Migratsiyaga sabab bo‘luvchi omillardan yana biri ham aynan o‘zidan va hayotidan qoniqmaslik tufaylidir. Bugungi kunda ijtimoiy frustrasiya darajasining ortib borayotganini yoshlarda ham kuzatish mumkin. Ularda moddiy barqarorlikka qisqa vaqt ichida erishish istagi yuqorilab bormoqda.

Suhbatlarda shu aniq bo'ldiki, erkaklar migratsiya qilish qarorini oila a'zolari bilan muhokama qilgan holda qabul qilsa, ayollar, asosan, o'zlari mustaqil qaror qabul qilar ekan.

3. Migratsiyaning oiladagi rollari, qadriyatlari va mafkurasining qayta taqsimlanishga ta'sirini o'rganish.

4. Migratsiyaning salomatlikka ta'sirini ko'rib chiqish.

Tadqiqotda qatnashgan erkaklar migratsiya sababi sifatida oila boqish uchun O'zbekistonda olayotgan maoshilari yetmasligini aytib o'tishgan.

Ayollarda esa migratsiya sabablari sifatida ajrashish, ijtimoiy bosim va ta'qib sabab bo'layotganini bildirishgan. Suhbatlarda shu aniq bo'ldiki, erkaklar migratsiya qilish qarorini oila a'zolari bilan muhokama qilgan holda qabul qilsa, ayollar, asosan, o'zlari mustaqil qaror qabul qilar ekan. Ayollarning yarmidan ko'p qismi migratsiyani yolg'iz o'zi hamrohsiz amalga oshirgan. Shuningdek, migratsiya qarorini qabul qilishda qarindosh-urug'lar va do'stlar ham asosiy rol o'ynashi aniqlangan. Bu ko'proq migratsiyada muvaffaqiyatli ishlayotgan tanishlariga havas qilish orqali bu qarorga kelishi turtki bo'lgan.

Tadqiqot ishtirokchilari migratsiya huquqlari va ijtimoiy yordam olish imtiyozlaridan bexabarligi bois, ko'p muammolarga duch kelganlari va ko'pchiligi noqonuniy migrant bo'lib faoliyat olib borganini ta'kidlagan. Suhbatda ishtirok etgan migrantlardan topgan daromadlarini, asosan, nimalarga sarflashlari so'ralganda, ularning 24 foizi o'z mablag'larini birlamchi, ya'ni kundalik xarajatlarga, 20 foizi mulk sotib olishga, 18 foizi to'y va shu kabi tadbirlarga sarflashlari aniqlangan. Keyingi o'rinlarda: talimga – 10%, sog'liqni saqlashga – 7% javoblari olingan. Shuningek, suhbatlarda shaharlardagi va qishloqlardagi migrant oilalarning topayotgan daromadlarini sarflashida sezilarli farqlar kuzatilgan. Shahardagi migrant oilalar pulini ko'chmas mulkka qaratishsa, qishloqdagi migrant oilalar moddiy jamg'armalarini, asosan, farzandlari to'yi (qizi yoki o'g'lining to'yi uchun marosim xarajatlari va seplari uchun xarajatlar) uchun sarflashini aytishgan. Qishloqdagi migrant oilalar o'z sog'lig'i va farzandlari ta'limi uchun xarajat ajratishga deyarli e'tibor qaratishmagan. Bu, albatta, quvonarli holat emas. Migratsiyaning ijobiy tomoni sifatida shuni e'tirof etish mumkinki, migratsiyadan qaytgan shaxslar migratsiyaga, asosan, to'y marosimlari uchun mablag' topish maqsadida ketishgani, ammo boshqa davlatda ishlagan paytlari o'sha mamlakat madaniyati bilan tanishib, bu marosimlar uchun sarflanadigan xarajatlar qanchalik noto'g'ri ekanligini anglaganliklarini takidlashgan. 60 foizdan ko'proq migrantlar migratsiyaga borgan mamlakatida qolish istagini bildirishgan. U yerda qolib ketadigan migrantlarni, asosan, yolg'iz ayollar tashkil qilgan, chunki orqasida kutayotgan oilasi, farzandlari yoki ota-onasi qolgan migrantlarga oz yurtiga qaytib kelishadi.

Tadqiqot doirasida migratsiyaning aniqlangan salbiy jihatlari:

– otaning uzoq vaqtga uydin ketishi oilaviy rishtalarning uzilishiga, er-xotin hissiyotlarining so'nishiga, ajrimga olib keladi;

– farzandlarda xulq-atvor buzilishiga olib keladi, chunki ularga qancha sovg'a-salomlar berilmasin yolg'izlik hissidan azob chekishadi. Shuningdek, oila haqidagi qarashlari noto'g'ri shakllanishiga sabab bo'ladi.

– migratsiyadagi erkak ham, ayol ham sog'lig'iga o'z vaqtida e'tibor qarata olmasligi natijasida sog'lig'i bilan bog'liq muammolarga duch keladi.

– yolgʻiz onaning migratsiyaga ketishi esa bolalar uchun ikki karra salbiy taʼsir oʻtkazadi⁸.

Yakuniy qism. Xulosa oʻrnida takidlash joizki, migratsiya hozirgi kunda oʻsishdan toʻxtamaydigan jarayon hisoblanadi. Zamon talabi esa migratsiyani kengroq tadqiq etish, muammolariga yechim topishdir. Migratsiyaga ketayotgan shaxslar faqatgina moddiy mablagʻni koʻzlab, tavakkal qilib ketishi koʻplab salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Migratsiyaning ijobiy va salbiy omillari yuqorida aytilganidek, tadqiqotlarda koʻrib chiqildi. Migratsiya qaroriga kelishdan oldin har bir shaxs oʻz individual xususiyatlaridan kelib chiqib, oilasi va oʻzi uchun eng maqbul choralarni koʻrishi lozim.

Bir narsani tan olish kerakki, migratsiyaning bir qancha ijobiy jihatlari ham mavjud. Masalan, iqtisodiy barqarorlik, dunyoqarashning kengayishi kabilar hisobiga oilalardagi ajrimlar hamda bolalarning kelajagiga salbiy taʼsir koʻrsatayotganini hisobga olgan holda, quyidagi takliflar oʻrinlidir:

– mamlakatda yetishib chiqayotgan ishchi kuchini hozirda mehnat bozorida talab katta kasblar (kopmyuter texnologiyalari, IT)ga yoʻnaltirilishi;

– shaxs hayotidagi har bir qaror inson kelajagiga katta taʼsir oʻtkazishi bois uning individual psixologik xususiyatlari, qobiliyatlari va kasb-hunariga qarab migratsiya uchun joy va ish tanlashga eʼtibor qaratishi;

– migratsiya va migrant huquqiy savodxonligini oshirish (OAVlar, radio, kitob va jurnallar orqali) maqsadidagi ishlarning amalga oshirilishi;

– bugungi kunda ayollar migratsiyasiga alohida eʼtibor qaratish, tadqiqot ishlarini koʻpaytirish ahamiyatlidir. Chunki ayol ona, kelajak avlod tarbiyachisi hisoblanadi. Ayollarga migratsiyaga ketishdan oldin psixologik yordam ishlarini tashkil qilishni samarali yoʻlga qoʻyish migrant ayollar uchun yaxshi natija beradi.

⁸ Трудовая миграция в Республике Узбекистан: Сб. ст. / Отв. ред. Е. В. Абдуллаев. – Ташкент, 2008. – 204 с.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “Oʻzbekiston” NMIU, 2019.
2. <https://api.stat.uz/api/v1.0/data/doimiy-aholi-soni-jami?lang=uz&format=pdf>
3. Alimov S. Aholi migratsiyasi ijtimoiy-axloqiy muhit transformatsiyasi omili sifatida. – Toshkent, 2022.
4. Majidova D.A., Xusanova D.F., Bazarov A.A. Mehnat migrantlari oilalarida shaxslararo munosabatlarning pedagogik-psixologik omillari. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021.
5. Abdusamatov H.U. Migrant Oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlari. – Toshkent, 2022.
6. Parmonov F., Toʻrayev Sh., Daminov I. Migratsiya: musofir vatangadolar. Monografiya. – Toshkent: “Sano-standart” nashriyot, 2015. – 112 b.
7. Трудовая миграция в Республике Узбекистан: Сб. ст. / Отв. ред. Е.В. Абдуллаев. – Ташкент, 2008. – 204 с.